

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

**«O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASINI
AMALGA OSHIRISH YO‘NALISHLARI VA
ISTIQBOLLARI YOSHLAR NIGOHIDA»
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYA**

Toshkent – 2024

<i>Normurodova S.B., Shodmonov R.G'. Til va marketing</i>	166
<i>Odilova D.O., Shodmonov R.G'. East asia counturies languages and cultures .</i>	171
<i>Nabiyeva N.A., Shodmonov R.G'. Til o'qitish usullari; o'rganilayotgan tillarni o'qitish uchun qo'llaniladigan usullar, til o'rganishning foydali tomonlari.....</i>	176
<i>Narzullayeva A.Sh., Shodmonov R.G'. Onlayn til o'rganish platformalari</i>	180
<i>Junaydullaxonova M.A., Shodmonov R.G'. Kitobxonlik va uning mohiyatini anglash</i>	184
<i>Yaxshiboyeva M.B., Shodmonov R.G'. Dunyo tillarining soni va turkiy til</i>	189

II SHUBA

<i>Абдалов А.Б. Роль развития рынка ценных бумаг в дальнейшем повышении инвестиционной привлекательности страны</i>	193
<i>Saidova I.X. Investitsion muhit va uni belgilovchi omillar (kambag'allik darajasi va o'zbekiston sharoitida unga ta'sir qiluvchi omillar.)</i>	199
<i>Sunnatullayeva M.G'. Aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha islohotlar - xalq kelajagi uchun poydevor masalalari.....</i>	205
<i>Kenjayev N. Temuriyzoda shohruh mirzo hukumronligi davrida temuriylar saltanatida aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha tabobat maktablarining faoliyati.....</i>	208
<i>Атаджанова А.У. Определить концентрированной системы в составе чёрный смородины выращиваемой в хорезмской области.....</i>	211
<i>Mohinur Sh.Sh., Shodmonov R.G'. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'limning o'rni.....</i>	213
<i>Sobirjonova D., Shodmonov R.G'. Koxlear implant bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar.....</i>	218
<i>Sayfullayeva F., Shodmonov R.G'. Bolalardagi senzetiv davr va nutq rivojlanishi</i>	222
<i>Xamidullayeva M.J., Shodmonov R.G'. Maxsus pedagogika va uning bo'limlari</i>	226
<i>Alieva F., Shodmonov R.G'. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar</i>	230
<i>Qurbonova K.A., Shodmonov R.G'. Bolalarda musiqani rivojlantirish.....</i>	234
<i>Komilova R.D., Shodmonov R.G'. Harakat tayanch a'zolarida buzilish bo'lgan bolalar</i>	237
<i>Turlibekova O., Shodmonov R.G'. Aqli zaif tushunchasi</i>	242
<i>Abdugafurova A., Shodmonov R.G'. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar....</i>	247
<i>Zayniddinova M.Sh., Shodmonov R.G'. Daun sindromli bolalar</i>	251

Макро элемент	Количество	Микро элемент	Количество	Микро элемент	Количество
Калий-К	300мг	Алюмин Al	500мкг	Медь-Cu	126мкг
Кальций- Ca	34мг	Бор-В	54мкг	Молибден	22мкг
Кремний -Si	60мг	Ванадий-V	4мкг	Никель -Ni	1,5мкг
Магний -Mg	33мг	Железо-Fe	1,2мкг	Рубидий-Rb	11,6мкг
Натрий -Na	36мг	кобальт-Co	3мкг	Селен-Se	1,2мкг
Сера -S	3мг	Йод-I	0,8мкг	Фтор-F	16мкг
Фосфор-F	30мг	Литий-Li	0,8мкг	Хром-Cr	0,8мкг
Хлор-Cl	16 иш	МарганецMg	0,17мкг	Цинк-Zn	0,9мкг

Сорта выращиваемая в регионе из группы дикорастущий чёрный смородины содержится больше до 3,84% органических (плодовых кислот). Дикорастущих сортах чёрной смородины отношение сахаристости к кислотности обычно пониженное, количество пектиновых веществ от 0,66 до 1,09%.

Вывод. Ягоды чёрной смородины содержит водорастворимые и спирторастворимые химические соединения, обладающие антиоксидантными свойствами. Выявлено, что процессе созревания происходит изменения химический состав ягод чёрной смородины, при этом увеличивается содержание сухих растворимых веществ, что в дальнейшем благоприятно влияет на диффузию при получении экстрактов.

Литература

- 1.Макаркина М.А., Янчук Т.В. Характеристика сортов смородины чёрной по содержанию сахаров и органических кислот. Сов.садоводств 2010,12стр9-12.
- 2.Мясищева Н.В Артёмова Е.Н. Изучение биологически активных веществ ягод чёрной смородины. Техника и технология пищевых производств. 2013,3.
- 3.Сорта ягодных культур источники повышенного содержания компонентов. Мичуринск. 2010 стр.112-116.
- 4.Гришко Т.Г. Закономерности накопления витаминов и полифенолов в плодах и ягодах. НАН Беларусь 2009.Т21 стр. 365-373.
- 5.Абдуллаев Р, Ягудина С. Томорқада етиштириладиган резавор мевалар. Т.1989.
- 6.Сезонов Ф.Ф, Никулин А.Ф. Сравнительная оценка качества ягод чёрной смородины. Вестник ФГОУ. Брянск ГСХА-2008. 2 стр.9-12.

ALOHIDA ENTIYOJGA EGA BO'LGAN BOLALARGA INKLYUZIV TA'LIMNING O'RNI

Mohinur Shomurodova Sheraliyevna¹

¹Xalqaro Nordik universiteti
Maxsus pedagogika(logopediya)

Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li²

²*Xalqaro Nordik universiteti doktoranti*

[*r.shodmonov@nordicuniversity.org*](mailto:r.shodmonov@nordicuniversity.org)

Annotatsiya. Ushbu maqolada alohida ehtiyojga muhtoj bo'lgan bolalarga hozirda yaratilayotgan keng ko'lamli imkoniyatlar haqida aytib o'tishimiz joizdir. O'zbekiston Respublikasida alohida ta'limga ehtiyojli bolalar uchun katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, inklyuziv ta'lim barcha bolalarni ehtiyojini hisobga olgan holda eng insonparvar ta'lim sifatida ular uchun keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, maxsus pedagogika, korreksion-pedagogik ish, maxsus ta'lim, psixologik-pedagogik, pedagog-defektolog

Bilamizki, bizga yod ham bo'lishga ulguragan imkoniyati cheklangan bolalar maxsus maktab yoki maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim olishadi. To'g'ri imkoniyati cheklangan o'z nomi bilan biron kimni ko'magiga muhtoj bo'lgan bola. Lekin biz bunda hamma bola ham bir xil emasligini unutib qo'ymoqdamiz.

Ularning orasida ham yengil darajada bo'lib yordamga kam ehtiyojli, sog'lom bolalar kabi ta'lim olish bilim egallashga haqlari bor bolalar ham mavjud. Maxsus ta'lim va tarbiyaning korreksion-pedagogik ish sifati yuqori darajada bo'lsada, biroq aynan alohida ehtiyojli bolalarning sog'lom muhitda ta'lim-tarbiya olmayotganliklari sababli ijtimoiy hayotimizga moslashishlarida ayrim muammolar paydo bo'ladi.

Shu bois imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning yoshi-segregatsion ta'lim tizimida o'qitilishi ko'plab salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishi jahon hamjamiyati tomonidan ham tan olinib, inklyuziv ta'lim siyosati qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu o'rinda L. S. Vigotskiyning fikricha: "Maxsus maktablarimiz afzallik jihatlari bilan bir qatorda ayrim kamchiliklari bilan ham ajralib turadi, u o'z tarbiyachisini tor doiradagi maktab jamoasi bilan chegaralab: kar, ko'r yoki aqli zaif bolaning asosiy e'tiborini o'zida mavjud bo'lgan kamchiligiga qaratib, barcha sharoitni shu nuqsoniga moslashtirib qo'yadi. Bularning barchasi bolaning haqiqiy hayotga kirib kelishiga to'sqinlik qiladi. Maxsus maktab bolani chegaralangan dunyodan chiqarish o'rniga odatda shunday ko'nikmalarni rivojlantiradiki, oqibatda uning separatizmligi kuchayib, bola o'z dunyosiga yanada chuqurroq sho'ng'ib ketadi".


Inklyuziv ta'lim davlat siyosati bo'lib, nogiron yoki boshqa sabablar tufayli maxsus yordamga muhtoj, kasallangan bolalar uchun moslashuvchan va individuallashtiruvchi yordam tizimidir va barcha bolalarni teng ko'rishni ko'zda tutadigan ta'lim turidir. Millati, irqi, tanasining rangi, ijtimoiy kelib chiqishi, oilasining jamiyatda tutgan o'rnini, manbayi, moddiy va ma'naviy axvoli, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda kamchiligi bo'lishidan qat'iy nazar barcha bolalarni teng ko'rish, ulardagi har qanday imkoniyatini qadrlash, rivojlantirishini ko'zda tutadigan ta'lim hisoblanadi. Inklyuziv ta'limning vazifalari:

- imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologo-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish;
- umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish;
- o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;
- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish;
- ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;
- imkoniyati cheklangan bolalar oilalaridan ajralmagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish;
- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimining 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-aprelda PF-5712-son Farmoni, "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktyabrda PQ-4860-son qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar mazmunida aholining ehtiyojmand qatlamlariga ta'lim xizmatining moslashgan turlarini, differensial yondashuvlarga asoslangan tizimni joriy etish belgilab qo'yilgan"[1].

Aslida inklyuziv ta'limning maqsadi imkoniyati cheklangan insonlar uchun to'siqsiz o'rganish va o'qitish muhitini yaratishdan iborat. Ushbu chora-tadbirlar majmuasi ta'lim muassasalarining texnik jihozlanishini va o'qituvchilar va boshqa maxsus ta'lim mutaxassislari uchun ularning nogironligi bo'lgan shaxslar bilan o'zaro munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv kurslarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, nogiron bolalarning umumiy ta'lim muassasasida moslashishini yengillashtirish uchun maxsus dasturlar zarur.

YUNISEF shu iborani ta'kidlaydi: "Bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etilishi kerak". Har bir bola – bir dunyo hisoblanadi. Har biriga individual yondashilsa, alohida mehr va e'tibor berilsagina biz istagan natijani olamiz. Bolalarning o'z qarashlari, bolalik fikrlari bor. Ular yoshligidan voqealarni kuzatishni, esda saqlashni boshlaydi. Shuning uchun ham biz bolalarning kichkinaligidanoq boshlab ularga osoyishta muhit va sifatli ta'limni joriy etishimiz kerak.



1-rasm. Qaysi davlat ta'limga ko'proq sarmoya kiritadi?

Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) hisobotiga ko'ra, ta'limga sarflanadigan xarajatlar mamlakatlar o'rtasida sezilarli darajada farq qiladi. So'nggi yillarda ta'lim tizimiga ajratilgan davlat xarajatlari ulushi ortib bormoqda va OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development) o'rtacha ko'rsatkichi bugungi kunda umumiy davlat xarajatlarining 12,9 foizini tashkil etadi.

Yangi Zelandiya eng yuqori miqyosda - mamlakat umumiy davlat xarajatlarining 21,6 foizi ta'limga sarflanadi. Meksika ham 20,5 foiz bilan orqada emas. Hikoya Braziliyada ham xuddi shunday bo'lib, u yerda davlat moliyasining muhim qismi, ya'ni 19,2 foizi ta'lim tizimiga sarflanadi. Boshqa joylarda bu ko'rsatkich AQShda 13,6 foizni, Buyuk Britaniyada esa 12,2 foizni tashkil qiladi. Italiya 8,6 foiz bilan uzoq masofani ortda qoldirdi.

Ta'lim borasida O'zbekiston ham orqada qolayotgani yo'q. Mamlakatimizda ta'lim ustuvorligini e'tirof etgan holda, ta'limning sifati va erkinligini ta'minlash, bu sohada davlat boshqaruvining samarali tizimini yaratish bo'yicha tizimli va keng doiradagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. So'nggi besh yilda ta'lim sohasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 100 yaqin farmon va qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 220 dan ortiq qarorlari qabul qilindi. Har yili O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining katta qismi ijtimoiy xarajatlar, jumladan, ta'lim xarajatlari uchun ajratiladi. 2022 yilning 9 oyligida bolalar bog'chalari, maktab, oliy va o'rta maxsus o'quv muassasalarini saqlash xarajatlarini moliyalashtirish uchun davlat byudjetidan 26,4 trln. so'mdan ortiq mablag' ajratildi. Buning natijasida ta'lim sohasi bir qator islohotlar amalga oshirildi.

Biz pedagoglarni oldilaridagi eng dolzarb masala yakka tartibda ta'lim olayotgan har bir o'quvchi bilan yaqindan tanishish, buyruq asosida dars beruvchi fan o'qituvchilarini o'quvchiga berayotgan ta'limini psixologik-pedagogik tahlil qilish zarur. Har bir fan o'qituvchisi sog'lom bolaga qanday ta'lim bersa, alohida ta'limga muhtoj o'quvchilarga ham shunday ta'lim berishsagina ularda korreksion ishlar olib borilgandan keyin bolada o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Alohida ta'lim olayotgan o'quvchilarga ham malakali, oliy ma'lumotli, o'z kasbini mukammal tarzda biluvchi mutaxassis bilan ta'minlash eng dolzarb muammolardan biri. Har bir o'quvchiga alohida e'tibor bilan yondashish, har bir dars jarayonida unga mehr-muhabbat bilan, uni ruhini ko'tarib dars berishini va har bir darsini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'tilsagina maqsadga muvofiq bo'lardi. Bu bilan yakka tartibda ta'lim olayotgan o'quvchi ham jamiyatga kerakligini his qiladi.

Kelajakda maxsus ta'lim muassasalari umumta'lim muassasalari uchun korreksion fanlar uslublari bo'yicha maslahat beruvchi markaz vazifasini bajarishi lozim. Maxsus ta'lim pedagoglari va defektologlari umumta'lim muassasalarida ta'lim oluvchi imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish bo'yicha umumta'lim fan o'qituvchisiga zaruriyat tug'ilganda korreksion ta'lim metodikasidan maslahat beruvchi resurs pedagog vazifasini o'taydi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limga jalb etish u uchun ijobiy va salbiy tomonlarini o'ylagan holda amalga oshirilsa samarali natijaga erishish mumkin. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bola inklyuziv ta'limga moslashish uchun ota-ona, psixolog, o'qituvchi va pedagog-defektolog hamkorlikda ish olib borilishi lozim. Har qanday holatda ham inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bola uchun foydali va samarali bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/docs/-3436192>
2. <https://kun.uz/uz/92037082>
3. Z.Baxadirova. Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari.2021(59)
4. M.U.Xamidova. Maxsus pedagogika. (Mutaxassislikka kirish):“Fan texnologiya”.2018 (8,164)
5. <https://uz.goodinternet.org/uz/sections/osmirlar/talim-va-men/inklyuziv-talim-nima/>
6. <https://www.statista.com/chart/3398/which-countries-invest-the-most-in-education/>
7. <https://review.uz/uz/post/talim-sohasida-2022-yilning-yanvar-dekabr-oylarida-amalga-oshirilgan-ishlar>